

O'zbekistonda birinchi marta "Yashil texnologiyalar vodiysi" ilmiy-texnologik Konsortsiumi taqdimoti o'tkazildi

2021-yil 20-may kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik institutida "Yangi materiallar va geliotexnologiyalar" mavzusida Xalqaro ilmiy konferensiyasini o'z ishini boshladi.





Konferensiyaning maqsadi yangi materiallar, geliotexnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish, takomillashtirish va ulardan foydalanish masalalarini tahlil qilish, muhokama etish va ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Konferensiya ishida xususiyatlari oldindan belgilangan ko'p funksional materiallarni yaratish, ushbu materiallardan mahsulot ishlab chiqarishning ilg'or texnologiyalari, shuningdek, geliotexnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan amaliy foydalanish masalalariga bag'ishlangan AQSh, Germaniya, Frantsiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Belorussiya va O'zbekiston olimlarining ilmiy ma'ruzalari tinglanmoqda.

Konferensiya doirasida O'zbekistonda birinchi marta tashkil etilayotgan "Yashil texnologiyalar vodiysi" ilmiy-texnologik Konsortsiyuning taqdimoti o'tkazildi va uning asosiy maqsadi vodorod energetikasi texnologiyalari, karbon tolalarini olish usullari, o'ta o'tkazuvchan materiallar va xususiyatlari oldindan belgilangan materiallar sohasida ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish, sinash, sanoat-tajriba sinovlarini o'tkazish bo'yicha hamkorlikdagi mega-loyihalarni amalga oshirishdir.



Konsortsium Fanlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va "O'zkimyosanoat" AJ tashabbusi bilan tashkil etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Materialshunoslik instituti, Yadro fizikasi instituti, Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti hamda Fizika-texnika institutlari, I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Ilg'or texnologiyalar markazi, Toshkentdagi Turin politexnika universiteti Konsortsium ishtirokchilaridir. Shu bilan birga, Konsortsium tarkibiga kirish uchun qiziqqan boshqa ilmiy markazlar ham taklif etiladi.

Shuningdek, taqdimot doirasida ishtirokchilar uchun Institut bo'ylab press-tur ham tashkil etildi hamda olimlar tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy ishlanmalar bilan yaqindan tanishtirildi.